



Some perspectives on the term "slang" in linguistics

Bunyodbek SOTVOLDIYEV¹

Andijan State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2025

Received in revised form

15 March 2025

Accepted 25 April 2025

Available online

15 May 2025

Keywords:

slang,
argot,
jargon,
substandard words,
professional or corporate
slang/jargon,
covert language,
vulgar vocabulary,
language of social groups.

ABSTRACT

In recent years, world linguistics has been paying great attention to the study of not only written speech, but also oral speech. Most of these studies cover the lexical layer of argot, jargon and slang speech units used in live communication. It should be noted that many sociolinguistic research materials carried out to date are based on these units, which are characteristic of colloquial language. Because their proximity to ordinary folk language is an important factor in determining the social value of language in society, it has attracted the attention of specialists. Therefore, this article will discuss the terms slang, argot and jargon.

2181-3663/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss3-pp85-91>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Tilshunoslikda sleng termini borasidagi ba'zi qarashlar

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

sleng,
argo,
jargon,
substandart so'zlar,
kasbiy yoki korporativ
argo / jargon,
yashirin til,
noadabiy leksika,
ijtimoiy guruhlar tili.

So'nggi yillarda dunyo tilshunosligida nafaqat yozma nutq, balki og'zaki nutqni tadqiq qilishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu tadqiqotlarning aksariyati jonli muloqotda qo'llanuvchi leksik qatlam argo, jargon va sleng nutq birliklarini o'z ichiga qamrab oladi. Ta'kidlash lozimki, bugungi kungacha bajarilgan ko'plab sotsiolingvistik yo'nalishdagi tadqiqot materiallariga so'zlashuv tiliga xos bo'lgan aynan shu birliklar asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki, ularning oddiy xalq tiliga yaqinligi tilning jamiyatdagi ijtimoiy bahosini aniqlashda muhim omil hisoblanishi mutaxassislarining e'tiborini jalb etib kelmoqda. Shu boisdan ushbu maqolada sleng hamda unga yondosh bo'lgan argo va jargon terminlari haqida so'z boradi.

¹ Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor, Andijan State Institute of Foreign Languages. E-mail: b.sotvoldiyev91@gmail.com

Некоторые взгляды на термин «сленг» в языкознании

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

сленг,
арго,
жаргон,
ненормативная лексика,
профессиональный или
корпоративный
сленг/жаргон,
скрытый язык,
вульгарная лексика,
язык социальных групп.

В последние годы мировая лингвистика уделяет большое внимание изучению не только письменной, но и устной речи. Большинство этих исследований охватывает лексический пласт арг, жаргонизмов и сленговых речевых единиц, используемых в живом общении. Следует отметить, что многие социолингвистические исследовательские материалы, проведенные к настоящему времени, базируются на этих единицах, характерных для разговорного языка. Поскольку их близость к обыденному народному языку является важным фактором определения социальной ценности языка в обществе, это привлекло внимание специалистов. Поэтому в данной статье будут рассмотрены термины сленг, арг и жаргон.

Stilistik cheklangan leksik birliklar (argo, jargon va sleng) haqida fikr bildirishdan avval ushbu noadabiy leksikaning ingliz tilida qanday qilib adabiy tildan ajralib chiqqaniga e'tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz. Ta'kidlash lozimki, bu jarayon uyg'onish davriga, ya'ni ingliz tilini standartlashtirish g'oyalari ilgari surilgan paytlarga borib taqaladi. Chunki aynan tilni adabiy lashtirish orqali uni umumiy bir qolipga solishga bo'lgan urinishlar avval nutqda, keyin esa badiiy, publitsistik va lingvistik adabiyotlarda argo, jargon va sleng atamalarining paydo bo'lishiga va ularning hozirgi mavqelariga erishishiga sabab bo'ldi.

Aslida esa ushbu g'oyani ilgari surgan ko'plab tadqiqotchilar, jumladan Samuel Jonsonning asosiy maqsadi tilni o'zgar mas yaxlit bir tizimga solish orqali ingliz tilini har xil "parazit" va substandart so'zlardan tozalash, ularning adabiy tilga suqilib kirishini to'xtatish bo'lgan. Afsuski, ularning bu urinishlari o'zini oqlamadi. Aksincha, o'sha paytlarda juda past nazar bilan qaralgan oddiy sleng birliklari XXI asrga kelib hatto sleng tili (slanguage – a blend of *slang* + *language*) [1] maqomiga erishdi va hozirda ko'plab tadqiqotchilar tomonidan alohida til deb ham yuritilmoqda [2].

Noadabiy leksika tarkibidagi argo, jargon va sleng terminlari, ko'pincha, tilshunoslikda yonma-yon qo'llaniladi. Shu sababli, avvalo, ushbu yondosh tushunchalar haqida jahon tilshunosligida hozirgi kungacha bildirilgan fikr-mulohazalarni tahlil qilish orqali ular o'rtasidagi asosiy o'xshash va farqli jihatlarni ajratib olish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Aytish lozimki, argo va jargon atamalari fransuz tilidan, sleng esa ingliz tili orqali tilshunoslikka kirib kelgan [3].

Argo terminining etimologiyasiga nazar solar ekanmiz, u haqda tadqiqotchilarning turli xil qarashlarni ilgari surganliklariga guvoh bo'ldik. Masalan, P.Tixanov (1899–1900) argo so'zining kelib chiqishi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: 1) argo qadimiy Yunonistondagi "Argos" shahri nomidan olingan; 2) u "Ragot" nomidan olingan [4]. A. Doza esa "argot" leksemasi fransuz tilidagi "Hargoter – so'kmoq, haqorat qilmoq" fe'lidan olingan deb tavsiflaydi [5]. M.A. Grachevning ta'kidlashicha, argo termini fransuz tilidagi "Ergo (fr. ergot) – xo'rozning pixi" so'zining noto'g'ri qo'llanishidan paydo bo'lgan. Xo'rozning pixi o'sha davrlarda o'g'rilar belgisi hisoblangan [6]. Y.Yordanning fikricha, argo so'zining tarixi rumin tilidagi "argo – qush, parranda tili" so'ziga borib taqaladi [7].

Argoning rivojlanish tarixiga nazar tashlasak, manbalarning guvohlik berishicha, u, dastlab, sodda til soʻz sifatida 1200–1300-yillarda paydo boʻlgan. Lekin, termin sifatida ilk bor 1600–1700-yillar oraligʻida qayd etilgan boʻlib, u, asosan, yashirin maqsadlarda, yaʼni atrofdagilardan oʻz-oʻzini himoya qilish maqsadida, asosan, jinoyat olami vakillari tomonidan foydalanilgan [8].

XVII asrgacha boʻlgan davr mobaynida ushbu termin aynan “Oʻgʻrilar tili” maʼnosida argo nomi bilan emas, balki fransuz tilidagi soʻz birikmalari: *“langue bleu, la langue verte, italien rogue”* kabi nomlar ostida yuritilgan [9].

“Argo” termini koʻp davlatlarda turlicha nomlar bilan ataladi. Masalan, ingliz tilshunosligida, koʻpincha, kent (cant), nemis tilida – rotveli (rotwelsch), ispan tilida – serigonza (xèrigonza), portugal tilida – kalao (calao), niderland tilida – bargoenz (bargoens), fransuz tilida – argo, rus tilida – argo, jargon yoki kent [10], oʻzbek tilshunosligida esa argo [11] deb ataladi.

Tadqiqotchilar tomonidan argoning XIX asrgacha aholining katta qismi uchun tushunarsiz va yashirin til boʻlgani aytiladi. XIX asrda esa Parijning bir nechta kvartallarida jinoyat olamining tashqi muhitdan ajralishi nihoyasiga yetib, jinoyatchilar argosi boshqalar uchun ham tushunarli til boʻla boshladi va u sodda til soʻzlar bilan aralashib ketdi. Aynan shu davrdan boshlab argo sodda til soʻzlar tarkibiga chuqur kirib bordi va oʻzining “Yashirin til” maqomini sekin-astalik bilan yoʻqotib, jamiyatdagi boshqa ijtimoiy guruhlar leksikonidan ham muqim oʻrin egallay boshladi [12].

G.Bosh argo haqida fikr bildirar ekan, sodda til soʻz va argoni bir-biriga aralashtirmaslik kerakligini taʼkidlaydi. Olimning fikricha, argo ijtimoiy jihatdan boshqalar uchun yopiq, muayyan toifalar uchun maxfiy til hisoblanadi va uning bir nechta turlari mavjud: jinoyatchilar argosi, kasbiy yoki korporativ argo / jargon. Ular orasida aynan jinoyatchilar argosi sodda til soʻzlarning paydo boʻlishida eng muhim omil hisoblanadi [13].

Argo haqida tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan fikrlarning xilma-xilligi, oʻxshash va farqli tomonlarining koʻpligi sababli, ularni umumlashtirilgan holdagi tasnifini keltirib oʻtamiz. Argoga tavsif bergan olimlarning qarashlarini asosan uch guruhga boʻlish mumkin:

1. Argoni faqat jamiyatning eng past tabaqalari: oʻgʻri va jinoyatchilar tomonidan qoʻllaniladigan yashirin til deb hisoblovchi tadqiqotchilar [14]. Ularning fikricha, argo atamasi faqat jinoyat olami vakillari foydalanadigan, boshqalar uchun esa tushunarsiz boʻlgan tor doiradagi yopiq til uchungina ishlatilishi kerak.

2. Argoni jamiyatdagi yoshi, qiziqishi, kasbi yoki qarashlari oʻxshash boʻlgan turli ijtimoiy guruhlar tomonidan qoʻllanuvchi kasbiy yoki korporativ argo/jargon sifatida talqin qiluvchilar [15]. Ular oʻz ishlarida argo va jargonni sinonim sifatida keltiradilar.

3. Argo atamasini keng maʼnoda qoʻllovchilar. Ularning fikriga koʻra, argo ham yashirin va maxfiy til, ham korporativ va kasbiy jargon hisoblanadi [16].

Tahlillar shunday xulosaga olib keldiki, argo va jargon ikki xil tushuncha boʻlib, ular orasidagi asosiy farq argoning yashirinligida koʻrinadi. Demak, bizningcha, argo stilistik cheklangan leksikaning bir turi boʻlib, jamiyatning eng quyi qatlami hisoblangan jinoyat olami vakillari nutqida ishlatilganda, oʻzining asl vazifasi boʻlmish yashirinlik xususiyatini namoyish etadi va toʻliq argo nomi bilan yuritiladi. Jamiyatdagi boshqa ijtimoiy guruhlar (yoshi, jinsi, kasbi, qiziqishiga koʻra uyushgan) leksikonida qoʻllanilganda, u oʻzining yashirinlik xususiyatini yoʻqotib, jargonga aylanadi. Shu sababli, bu oʻrinda u ham “argo” ham “jargon” deb yuritiladi.

Qoʻllanishi cheklangan leksikaning yana bir turi “jargon” haqida fikr yuritar ekanmiz, uning etimologiyasi borasida ham turli qarashlarning mavjudligiga guvoh boʻldik.

K. Allan va K. Burrijlar jargonning Hind-Yevropa tilidagi “gargle – tomoq” soʻzidan olingan boʻlib, tomoqdan chiqadigan har qanday tovush maʼnosini ifodalashini taxmin qiladilar [17]. A. Dozaning fikriga koʻra, jargon termini “gargouiller – bilqillamoq, shildiramoq” soʻzidan hosil boʻlgan [18]. M. Fasmer uning gallo-roman tilidagi “gargone – bekorchi gap, safsata” soʻzidan paydo boʻlganini eʼtirof etadi [19]. V. Xomyakov jargonning eski fransuz tilidagi “gargon – qushning chugʻurlashi” soʻzidan paydo boʻlgan deb hisoblasa [20], A. Lipatov uning “langue argotique” birikmasidan kelib chiqqanini taʼkidlaydi [21].

Jargonning jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar (yoshlar, harbiylar, talabalar, yoshi kattalar) tili ekanligi borasida barcha tadqiqotchilar deyarli bir xil fikr bildiradilar. Lekin, asosiy bahs uning boshqalar uchun ochiq yoki yopiq (yashirin) ekanligida boradi.

U. OʻGreydi (1997), Sh.Balli (2001), L.I. Skvorsov (1966) kabi tadqiqotchilar jargonni tor maʼnodagi tushuncha ekanligini taʼkidlab, uning yashirinlik xususiyatiga eʼtibor qaratadilar. O. Esperson (1925), E. Hemp (1964), E. Partrij (1999), V. Jurin (1974), A. Miller (1972), J. Grinou va J. Kittrij (1929), N. Melnik (2002), A. Domashnev (1987), A. Kalinin (1978), L. Staviskaya (2005), V. Ximik (2000), A. Sibulevskaya (2005), I. Shur (2006) [22], M. Umarxoʻjaev [23] kabi olimlar jargonni keng maʼnoda tavsiflab, unga jamiyatdagi kasbi, yoshi, qiziqishi va mavqeyidan kelib chiqqan holda uyushgan turli sotsial guruhlar tomonidan qoʻllaniluvchi alohida nutq birligi sifatida qaraganlar.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, ikkinchi guruh olimlarning fikrlarini qoʻllab-quvvatlagan holda, biz ham jargonni tor maʼnoda emas, balki nisbatan kengroq doiralarda qoʻllanuvchi, yashirin maqsadlarda emas, balki, koʻpchilik uchun tushunarli boʻlgan nutq birligi ekanligini eʼtirof etamiz. Chunki jargon insonlarning kattaroq auditoriyasi tomonidan oʻzlarining zamonaviy ekanliklarini koʻrsatish va boshqalardan ajralib turish maqsadida umomtildagidan oʻzgacha leksik maʼnoda qoʻllaniladi (masalan, *ishlar besh, gapni qiyadi*) [24].

Noadabiy leksikaning yana bir turi sleng haqida gap ketar ekan, hanuzgacha uning jahon tilshunosligidagi eng bahsli va dolzarb tadqiqot mavzularidan biri hisoblanishini taʼkidlash lozim. Tortishuvlarning markazida slengning jargon va argodan mustaqil hodisa sifatida mavjudligi hamda uning asosiy sotsial xususiyatlari masalalari turadi. Buning asosiy sababi sifatida ushbu terminning tilshunoslikka nisbatan kechroq kirib kelgani, sleng va boshqa noadabiy nutq birliklari (argo va jargon) oʻrtasidagi chegarani aniqlashda haligacha bir toʻxtamga kelinmaganligini keltirish mumkin. Shu maʼnoda, J.Farmer slengga “Soʻz dunyosining eng qorongʻi qitʼasi” [25] deya taʼrif berganida haqli edi.

Bundan tashqari, sleng terminining etimologiyasi borasida ham turli-tuman qarashlar mavjud. Masalan, J. Bining fikricha, sleng atamasi qamoqxonalarda jinoyatchilarning qochib ketmasligi uchun ularning qoʻl va oyoqlariga majburan taqib qoʻyilgan kishan “A sling of string” soʻzlaridan olingan [26].

J. Hotten sleng terminini ingliz tiliga oid atama emas, balki “Loʻlilarning (yashirin) tili” ekanligi va uning gibberishga (oʻylab topilgan, boshqalar uchun maxfiy boʻlgan til) sinonimligini taʼkidlaydi [27].

Sleng terminining kelib chiqishi borasida aksariyat tadqiqotchilar E.Partrijning fikrini toʻgʻri deb hisoblaydilar. Olimning fikricha, ingliz tilidagi “slang” va skandinav tilidagi “to sling – gapirmoq, demoq, soʻkmoq” soʻzlari bir oʻzakdan paydo boʻlgan [28]. Shu sababli, u sleng atamasini “to sling” feʼlidan paydo boʻlgan degan gʻoyani ilgari suradi.

Sleng soʻzi mustaqil atama sifatida rasmiy adabiyotlarda ilk marotaba 1756-yilda Katta Oksford lugʻatida (OED) “Tor doirada qoʻllanuvchi vulgar xarakterga ega boʻlgan nutq birligi” sifatida qayd etilgan [29]. Shu oʻrinda tabiiy savol tugʻiladi: “Oʻsha davrgacha

nutqda bunday birliklar mavjud bo'lmaganmi?". Ta'kidlash lozimki, o'sha paytgacha ham inglizlar nutqida bu kabi birliklar mavjud bo'lgan, lekin ular boshqa turli nomlar bilan atalgan: *lewd* (1386–), *knaveish* (1386–1529), *bawdy* (1513–), *ribaldous* (1565–), *cant* (1567–1750), *tavernly* (1612–), *billingsgate* (1652–), *low* (1672–), *vulgar* (1716–), *flash* (1746–) [30]. E. Partrijning ta'kidlashicha, sleng XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab "Noqonuniy og'zaki nutq" [31] sifatida ishlatila boshlangan.

Sleng evolyutsiyasiga nazar solar ekanmiz, slengning rasman termin sifatida qabul qilingan paytlardan to yaqin vaqtlargacha unga nisbatan juda past nazar bilan qarash, doimiy ravishda tanqid toshlarini otish holatlari juda ko'p uchradi. Hatto, uning argo va jargon atamalarining soyasida qolib, o'z-o'zidan iste'moldan chiqqan holda nutqdan yo'q bo'lib ketishi ham kutilgan edi. Lekin, sleng termini o'z yashovchanligini isbot qildi hamda o'zining barcha sinonimlaridan ko'ra ko'proq yashadi va boshqa ko'plab tillarda ham termin sifatida qo'llanila boshlandi.

Hozirgi kundagi sleng erishgan ushbu maqomni, bizningcha, faqat birgina omil bilan emas, balki boshqa ko'plab siyosiy, madaniy va mafkuraviy omillar bilan ham bog'lash maqsadga muvofiqdir. Chunki, sleng termini dastlab Britaniyada paydo bo'lgan va keyinchalik AQShga ko'chib o'tib, asosan, Afro-Amerikaliklar nutqidan muqim joy egallagan. AQShda qora tanlilar rasman oq tanlilar kabi teng huquqli deb e'lon qilingandan so'ng, ularning tili va madaniyati butun mamlakat bo'ylab faol ravishda tarqala boshladi. Natijada, sleng jamiyatning barcha qatlamlarida – musiqa, adabiyot, san'at, ommaviy axborot vositalari, sport va boshqa turli sohalarida keng targ'ib qilindi va bugungi kunda ingliz tili Amerika variantining ajralmas qismiga aylandi.

Aslida, XX asrgacha bo'lgan davrda Buyuk Britaniyada ham sleng termini ancha ommalashib, ta'sir doirasini kengaytirib borgan. Lekin, u yerda boshqa tillarga ham ta'sir ko'rsatadigan darajaga yeta olmadi. Bizningcha, slengning butun dunyoga tarqalishiga XX asrga kelib dunyodagi geosiyosiy muvozanatning o'zgarishi va kuchlarning qayta taqsimlanishi natijasida AQShning jahon sahnasida yetakchi davlatga aylanishi eng muhim sabablardan biridir. Chunki, u yetakchilik yo'lida butun dunyoga madaniyati, tili va siyosiy g'oyalarini faol tarzda targ'ib qila boshladi.

Bu yo'lda gollivud filmlari, jazz, rok kabi musiqa turlari va milliy mass-mediadan keng foydalandi. Buning natijasi o'laroq butun dunyoda, hatto Yevropaning o'zida ham Amerika madaniyati va tiliga bo'lgan qiziqish ortdi. Tabiiyki, slengsiz tasavvur qilib bo'lmaydigan ingliz tilining Amerika variantini o'rganish va uni chuqur tadqiq qilish ishlari boshqa madaniyat vakillari tomonidan faol tarzda olib borildi va bu jarayon hozirgacha davom etib kelmoqda. Bu izlanishlar noadabiy leksik birliklar, xususan slengni ham chetlab o'tmadi, albatta. Aytish joizki, XXI asrning ikkinchi o'n yilligiga kelib, jamiyatda sleng kirib bormagan, undan foydalanmaydigan sohalar soni barmoq bilan sanarlidir. Hatto, avvallari faqat rasmiy tildangina foydalanilgan siyosat, iqtisod va boshqa yo'nalishlarda ham bugungi kunda ba'zan qo'pol, yumoristik xarakterga ega bo'lgan sleng birliklari keng qo'llanilmoqda. Buning asosiy sabablaridan yana biri sifatida esa Yevropa va AQSh tomonidan ilgari surilgan hamda butun dunyoda qo'llab-quvvatlanayotgan "So'z erkinligi" g'oyasining barcha jamiyatlar hayotiga kirib borayotganligi bilan izohlash mumkin. Yuqorida sanab o'tilgan faktlar slengning evolyutsion rivojlanishi, hozir kundagi egallagan o'rni va erishgan muvaffaqiyatiga sabab bo'lgan eng muhim omillar sirasiga kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Coleman J. The Life of Slang. – Oxford: Oxford University Press, 2012. – p.13; Stantsröm A.B. From Slang to Slanguage: a description based on teenage talk // Linguistic society of America, Vol. 80, №4, December 2004. – p. 900.
2. Coleman J. The Life of Slang. – Oxford: Oxford University Press, 2012. – p.13;
3. Раҳимов Ғ. Британия ва Америка сленгининг социолингвистик хусусиятлари: Филол.фан.номз. ...дисс. – Самарқанд, 2006. – б.28.
4. Липатов А.Т. Сленг как проблема социолингвистики. – М.: Элпис, 2010. – с. 53.
5. Липатов А.Т. Сленг как проблема социолингвистики. – М.: Элпис, 2010. – с. 53.
6. Грачев М.А. Интервенция криминального языка // Наука и жизнь. – М., 2009. № 4. – с. 128.
7. Йордан Й. Романское языкознание. – М.: Прогресс, 1971. – с. 540.
8. Giraud P. L'argot. 9-e edition / P. Guiraud. – Paris: Presses Universitaires de France, 1985. – p. 7.
9. Руденко М.Ю. Исследование Арго, Жаргон и Сленга: Вопросы терминологии // Филологические науки. Вопросы теории и практики. –Тамбов: Грамота, 2016. – с. 127.
10. Руденко М.Ю. Исследование Арго, Жаргон и Сленга: Вопросы терминологии // Филологические науки. Вопросы теории и практики. –Тамбов: Грамота, 2016. – с. 127.
11. Раҳимов Ғ. Британия ва Америка сленгининг социолингвистик хусусиятлари: Филол.фан.номз. ...дисс. – Самарқанд, 2006. – б. 31; Sharipova O'. va Rahimov I. Tilshunoslik asoslari. – T., 2006. – б. 47; Xolmanova Z.T. Tilshunoslikka kirish. T., 2007. – б. 102.
12. Gadet F. Le français populaire. Paris: Presses Universitaires de France, 1992, p. 103; Giraud P. L'argot. 9-e edition / P. Guiraud. – Paris: Presses Universitaires de France, 1985. – p. 15-16.
13. Bauche H. Le language populaire. – P.: Payot, 1951. – pp. 23-24.
14. Bauche H. Le language populaire. – P.: Payot, 1951. – p. 24; Грачев М.А. Интервенция криминального языка // Наука и жизнь. – М., 2009. № 4. – с. 128.
15. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов (2-е изд.). – М.: Советская Энциклопедия, 1969. – с. 53; Розенталь Д.Е., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов (2-еизд.). – М.: Просвещение, 1976. – с. 28; Cellard J., Rey A. Dictionnaire du français non conventionnel. – P: Hachette, 2001. – p. 53.
16. Истомин В.С. Норма и социальная вариативность в языке // Лингвокультурологическая парадигма в современных исследованиях. – Гродно, 2011. – с. 191-197; Ярцева В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Большая российская энциклопедия, 1998. – с. 43; Горбач О.Т. Арго в Україні. – Львів: Інститутукраїнознавстваім. І. Крип'якевича НАН України, 2006. – с. 143; Caradec F. N'ayonspaspeurdesMots. Dictionnaire du français argotique et populaire. – P: Larousse, 2005, p. 12; Раҳимов Ғ. Британия ва Америка сленгининг социолингвистик хусусиятлари: Филол.фан.номз. ...дисс. – Самарқанд, 2006. – б. 31.
17. Allan K. and Burridge K. Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language. New York: Cambridge University Press, 2006, p. 55.
18. Липатов А.Т. Сленг как проблема социолингвистики. – М.: Элпис, 2010.– с. 54.
19. Хомяков В.А. Введение в изучение слэнга – основного компонента английского просторечия. – Вологда: Вологодский гос. пед. ин-т, 1971. – с. 60-61.

20. Хомяков В.А. Введение в изучение слэнга – основного компонента английского просторечия. – Вологда: Вологодский гос. пед. ин-т, 1971. – с. 61.
21. Липатов А.Т. Сленг как проблема социолингвистики. – М.: Элпис, 2010. – с. 55-56.
22. Руденко М.Ю. Исследование Арго, Жаргон и Сленга: Вопросы терминологии // Филологические науки. Вопросы теории и практики. –Тамбов: Грамота, 2016. – с. 129.
23. Умархўжаев М.Э. Лексикология Лексикография Фразеология Фразеография. – Андижон: Жаҳон-интер-принт, 2010. – б.52.
24. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Университет, 2006. – б. 86.
25. Farmer J.S. Slang and its analogues. Past and Present (Vol. 1). L: Paternoster Square, 1890, p. vi.
26. Hotten J.C. A dictionary of modern slang, cant and vulgar words (sec. ed.). L: Piccadily, 1860, p.52.
27. Hotten J.C. A dictionary of modern slang, cant and vulgar words (sec. ed.). L: Piccadily, 1860, p. 52.
28. Eble C. Slang and sociality: in-group language among college students. Chicago: The University of North Carolina Press, 1996, p. 11.
29. Хомяков В.А. Введение в изучение слэнга – основного компонента английского просторечия. – Вологда: Вологодский гос. пед. ин-т, 1971. – с. 29.
30. Coleman J. The Life of Slang. – Oxford: Oxford University Press, 2012, p. 119.
31. Липатов А.Т. Сленг как проблема социолингвистики. – М.: Элпис, 2010. – с. 45-46.